O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 4 - dekabr 376-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari ichidagi jamoat transporti tizimida yangi, qo‘shimcha va rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-59-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektrtransportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risida” 273-son nizomiga muvofiq hamda Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasining 2023-yil 28-noyabrdagi 15-1-5/114-sonli xatini inobatga olib Guliston, Shirin va Yangiyer shahrida umumiy foydalaniladigan jamoat transportida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish, jamoat transportida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish va avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini to‘lash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan doirada belgilangan tariflar bo‘yicha amalga oshirilishi qayd

etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari jamoat transporti uchun to‘lovlarda shaffoflikni ta’minlash, yo‘l kira haqini to‘lashda elektron to‘lov turlaridan foydalanishni rag‘batlantirish hamda avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida yo‘l kira haqi to‘lovi naqd pulsiz usulda amalga oshirilgan hollarda, o‘rnatilgan cheklangan tarifga nisbatan 30 foiz miqdorida ustama qo‘llash hamda tarif rejalarining narxlarini qatnovlar soniga bog‘lash tizimi joriy etilsin hamda qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘l kira haqining quyidagi cheklangan tariflari belgilansin:

a) bir yo‘lovchi uchun qatnov naqd pul va bank kartalari orqali amalga oshirilganda cheklangan tarif miqdori - 2 000 (ikki ming) so‘m;

b) bir yo‘lovchi uchun yagona transport kartalari (ATTO) orqali to‘lov amalga oshirilganda 1 martalik rag‘batlantiruvchi tarif – 1 500 (bir ming besh yuz) so‘m;

d) bir yo‘lovchining bagajini tashish bo‘yicha xizmat uchun – 2 000 (ikki ming) so‘m;

e) qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarini hisoblash uchun cheklangan tarif – 1 500 (bir ming besh yuz) so‘m.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qaroriga asosan:

- Yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti - avtobusdan foydalanishlarida qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarining narxlari 1-ilovaga;

- elektron to‘lov tizimlaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tarif rejalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar atrofi yo‘nalishlarida bir yo‘lovchi kilometr uchun tavsiyaviy tarif:

– avtobuslarda 150 (bir yuz ellik) so‘m;

– yo‘nalishli taksilarda 200 (ikki yuz) so‘m etib belgilansin;

5. Viloyat Transport boshqarmasi (Sh.Abdullayev) mazkur qaror talablariga asosan, o‘n kun muddatda qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi

tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyati hokimining 2023-yil 5-maydagi “Shahar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish tariflarni belgilash to‘g‘risida” 135-0-9-Q/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin hamda viloyat hokimining 2023-yil 21-noyabrdagi “Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari ichidagi jamoat transporti tizimida yangi, qo‘shimcha va rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy qilish to‘g‘risida” 363-9-0-Q/23-sonli qarori huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmaganligi sababli bekor qilinsin.

7. Sirdaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va https://sirdaryo.uz veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2023-yil 4-dekabrdagi
376-9-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan TARIF REJALARI

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni	Tarif rejalarining narxi, so‘m
1.	“AV” avtobus, elektrobus - aholi uchun*	1	-	5000
		5	22	23000
		7	-	33000
		10	44	47000
		15	66	71000
		20	88	94000
		30	130	140000
		90	-	420000
		180	-	840000
		365	-	1705000
2.	“N” avtobus, elektrobus - pensionerlar va nogironlar uchun**	1	-	2500
		5	22	11500
		7	-	16500
		10	44	23500
		15	66	35500
		20	88	47000
		30	130	70000
		90	-	210000
		180	-	420000
		365	-	852500
3.	“T” avtobus, elektrobus - talabalar uchun**	1	-	2500
		5	22	11500
		7	-	16500
		10	44	23500
		15	66	35500
		20	88	47000
		30	130	70000
		90	-	210000
		180	-	420000
		365	-	852500

4.	“O‘” avtobus, elektrobus - o‘quvchilar uchun**	1	-	2500
		5	22	11500
		7	-	16500
		10	44	23500
		15	66	35500
		20	88	47000
		30	130	70000
		90	-	210000
		180	-	420000
		365	-	852500
5.	“B” bepul - O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq transportidan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar uchun	30	60	0

*) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1500-23%;

**) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1500-23%-50%, bunda:

X – transportda qatnovlar soni;

1500 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif;

23% - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan to‘liq qiymatidan belgilangan chegirma miqdori;

50% - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan, chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan qo‘llanadigan imtiyoz.

Sirdaryo viloyat hokimining
2023-yil 4-dekabrdagi
376-9-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida” PQ-59-son qaroriga asosan yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti - avtobuslardan foydalanishlarida to‘lovlar transport kartalari orqali amalga oshirilganda almashish

TARIF REJALARI*

T/r	**Tarif rejalarini nomlanishi**	**Almashish turlari**	**Tarif rejalarining narxi,** (so‘m)
1.	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	1500
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1000
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0

Izoh:

* mazkur tarif rejalarini narxi faqat bir transport turi uchun transport kartalari orqali to‘lov amalga oshirilganda qo‘llaniladi.